

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “MUBAYYIN” ASARIDA KELGAN OYAT-U KALIMALAR TAVSIFI

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi

Magistranti Shomurzayev Muhammadjon G'ulom o'g'li

**Annotatsiya:** Tarixiy kitoblarda Zahiriddin Muhammad Boburning shohlik, sarkardalik va olimlik iste'dodidan tashqari islom diniga nisbatan qarashlari ya'ni fiqh ilmini mukammal egallagan shaxs bo'lib, “Mubayyin” qo'lyozmasida islomiy masalalar yoritilgan. Shuningdek, ushbu maqolada Mubayyin asarida kelgan oyat-u kalimalarning turgan o'rni va tavsilotlari haqida so'z boradi

**Kalit so'zlar:** Fiqh, hanafiy, Mubayyin, diniy qarashlar, Boburiylar, Hidoya, tavsif, qo'lyozma, masnaviyat.

**Annotation:** In historical books, Zahiriddin Muhammad Babur, in addition to his kingship, leadership and scholarly talent, was a person who perfectly mastered the science of jurisprudence. Also, this article holds information and classification of the place and explanation of verses and words in Mubayyin's work.

**Key words:** Fiqh, Hanafi, Mubayin, religious views, Baburis, Hidaya, description, manuscript, spirituality.

Boburiylar ham fiqhda hanafiy bo'lganlari uchun ularning davrida hanafiylik hind musulmonlari orasida rasmiy mazhab darajasiga ko'tarildi. Boburiylar tomonidan qozilik va muftiylik lavozimlariga hanafiy faqihlarning tayinlanishi hind diyorida hanafiylikning yanada chuqur ildiz otishini ta'minladi. Boburiylar davlatidagi madrasalarda hanafiy mazhabiga oid fiqhiy kitoblar o'qitilgan. Bular qatorida eng mashhurlari Burhoniddin Marg'inoniyning “Hidoya”, Abul Barakot Nasafiyning “Manor”, Abul Ushr Pazdaviyning “Usul”, Ubaydulloh ibn Mas'udning “Sharhul viqoya” kitoblarini sanab o'tish mumkin. Mazkur asarlarning bari Movarounnahr faqihlari qalamiga mansub. Bu esa yurtimizda asos solingan

ilmiy maktablarning Hindistonda islom ilmlari rivojiga ta'siri qay darajada yuqori bo'lganiga yorqin dalildir.

Bobur Mirzoning ilohiyotga sidqu sadoqati tasodifiy emas. Shunday xulosani uning naqshbandiyaga e'tiqodi xususida ham aytish mumkin. Hayot va taqdir chorahalarida tang ahvolda qolgan, ruhiy yoxud jismoniy jihatdan nochor holatga tushgan sarkarda yuzni samoga buradi, munojot ila g'aybiy qudratdan madad va najot tilaydi. Muhammad qiblasini topadi, sidqiy sajdaga tushadi, peshonasini tabarruk zaminga tekkizib, janobi Rasuli akramning marhamatiga umid bog'laydi. Xo'ja Axror Valiy nuroniy siymosini ko'z oldiga keltirarkan, hazrat bashoratlarning ko'magiga mushtoqligini ma'lum qiladi.

Tarixiy kitoblarda Zahiriddin Muhammad Boburning shohlik, sarkardalik va olimlik iste'dodidan tashqari islom diniga nisbatan qarashlari ya'ni fiqh ilmini mukammal bilgani ham keltiriladi. Jumladan, Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" (sevimli zotlar yodnomasi) asarida Bobur haqida bunday so'zlar bor: Fiqh masalalarini yana bir risolada mubayyan qilganki, yozuvchisi donishmandligidan nishonadir. Turkiy va forsiyda yaxshi she'rlari bordir. O'shal fiqh risolaning nomi "Mubayyin" dir.

1521 yil Hindistonga yurishlari davrida Zahiriddin Muhammad Bobur "Mubayyin" asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag'ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar ham jamlangan. Valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo'ljallangan "Mubayyin"da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to'g'risida ham shar'iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she'riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat shoh va shoir, balki shariat bilimdoni bo'lganini o'zining "Mubayyin" asari orqali namoyon etgan. "Mubayyin" Boburmirzoning avlodlariga qoldirgan tuhfasini bo'lib, hanafiy mazhabi bo'yicha

turkiy tilda yozilgan ilk nazmiy asarlardan biridir. Dunyoning turli qo‘lyozma fondlarida “Mubayyin” qo‘lyozmalari mavjudligi, mazkur asarning barcha davrlar uchun nihoyatda yuksak ahamiyatga ega bo‘lganidan dalolat beradi. “Mubayyan” asari – ham she'riyat, ham ilm xazinasidir!

Shoh va shoir, alloma va sarkarda Boburning shunday go‘zal kitob yozgani – millatimizning sharafigidir. Zahiriddin Muhammad Bobur «Mubayyin» asari masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan. Bobur Mirzo “Mubayyin”da eng muhim islomiy ilmlarni saralab o‘zining din olimi, faqih ekanini ham ko‘rsatgan. Sovetlar davrida “Mubayyin” asari xalqdan yashirildi, faqat istiqlol yillari izohlar bilan nashr etildi. “Mubayyin” Hindiston yurishlari davrida, hijriy 928 (mil. 1521) yili she’riy yo‘lda tasnif etilgan. Asarda ahli sunnat val jamoat aqoidi ravshan bayon qilingan.

Valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo‘ljallangan «Mubayyin»da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to‘g‘risida ham shar’iy mezonlar bayon qilingan.

“Mubayyin” nashrining titul varag‘ida ham bir qancha e’tiborni tortuvchi qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, bezakli jadvalning eng avvalida quyidagi hadisi sharif joy olgan:

رسول قال قال ع نهما الله ر ضي ال خطاب ب ن عمر ب ن الله ع بد الرحمن ع بد أبي عن  
وسلم عليه الله صلى الله  
، الزكاة وإيتاء، الصلاة وإقام، الله رسول محمدًا وأن الله إلا إله لا أن شهادة: خمس على الإسلام بُني  
عليه م ت فق رَمَضان وصَوْم، والحجّ

“Ibn Umar roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadiki, Rasululloh sollollohu alayhi va sallam: “Islom besh narsa ustiga qurilgandir – “Allohdan o‘zga iloh yo‘qdir va albatta Muhammad Allohning elchisidir”, deb guvohlik berish, namoz o‘qish, zakot berish, haj qilish, ramazon ro‘zasi” – dedilar”.

Jadvalning o'rtasida asarning to'liq nomi "In kitob rofe' ul-xavos va nofe' ul-avom, al-musammo bi-"Mubayyin ul-islom" tarzida ko'rsatilgan. Ya'ni bu kitob xoslarni yuksaltiruvchi, avomni manfaatlantiruvchi bo'lib, u "Mubayyin ul-islom" – "Islomni bayon qiluvchi", deb nomlangandir.

Garchi Mirzo Bobur kitob muqaddimasida

Chun bayon etjim anda shar'iyot

Ne ajabki, dedim "Mubayyin" ot, –

deya, asarning qisqa nomini zikr etgan bo'lsa-da, asarning to'liq nomi XX asrgacha "Mubayyin ul-islom" tarzida yetib kelgan. Yurtimizda qo'lyozma va toshbosma asarlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilyotgan davrda, ma'naviy merosimizni mana shunday nozik jihatlarga e'tibor qaratish ayniqsa, muhimdir. Tadqiqotlar asl manbalarga tayanilsa, ularning ilmiy ahamiyati va sifati ham yuksaladi.<sup>1</sup>

Muqaddima ham nihoyatda go'zal satrlar bayonini jamlagan:

الرديم الرحمن الله بسم

Alloh ta'ologa so'ngsiz hamdu sanolar bo'lsin. Hazrati Rasululloh sollall ohu

alayhi va sallam janobimizga cheksiz salotu salomlar bo'lsin.

Shoh Bobur «Mubayyan» kitobi orqali buyuk faqih zot ekanini namoyon etadi, asarni o'z valiahd o'g'illari Nosiruddin Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo'ljallab, ularning siymosi orqali butun xalq ommasiga besh farz fihiy masalalarini ta'lim qiladi.

Darhaqiqat, asarda muqaddas islom dinining besh rukni: iymon-e'tiqod, namoz, ro'za, zakot va haj masalalari go'zal she'riy tilda bayon etilgan.

Tahqiq natijasida shunga shohid bo'ldikki, "Mubayyan" asarining asosiy tayangan manba'lari muborak "Muxtasarul-Viqoya" hamda «Hidoya»i sharif kitoblaridir. Asardagi duo matnlari esa asosan kutubi sittada, ya'ni olti ulug'

<sup>1</sup> <https://moturidiy.uz/oz/news/1080>

muhaddisning kitoblarida kelgan hadislardan hamda Imom G‘azzoliyning «Ihyou ulumid-din» asaridan tanlab olingan. Qomusiy alloma, mumtoz shoir, ma'rifatli faqih Zahiruddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Mubayyan” asari Temuriylar davri ijtimoiy, oilaviy, xususiy hayotidagi ilmiy, ma'rifiy, diniy madaniyatning nazmiy ifodasidir.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Mubayyin” asarining tuzulishi ham juda diniy qoliplar asosida tartib bilan joylashtirilgan. Ushbu asar beshta kitobdan tashkil topgan bo'lib,

- E'tiqodiya
- Kitobu-s-salot
- Kitobu-z-zakot
- Kitobu-s-savm
- Kitobu-l-haj

deb nom berilgandir.

Asarning birinchi bobi “E'tiqodiya” deb nomlanib, Islom dini kirib kelganidan so'ng urf bo'lgan tarkibda boshlab beriladi. Ya'ni ular :

- ✓ Basmala;
- ✓ Payg'ambarimiz s.a.v.ga na't;
- ✓ Kitob nazmining sababi;
- ✓ Besh farzning ta'dodi;
- ✓ Olti mo'man bihning zikri;
- ✓ Haq subhanahuning subutuy sifatlarining tafsili;
- ✓ Meroj sifatig'a ishorat;
- ✓ Basher jinsi bila malak jinsining bir-

birlariga fazilatlarining bayoni;

- ✓ Ishorat-I Imomg'a
- ✓ Ishorat iymonning natija-

vu foydasig'a kabi bo'limlardan tashkil topgan.

Ikkinchi bob esa “Kitobu-s-salot” deb nomlanib,

- ✓ Basmala;
- ✓ Namozdin tashqarig'I olti farzning bayoni;
- ✓ G'uslning avvalg'I mavjabining bayoni;
- ✓ Tayammum bayoni;
- ✓ Namoz vaqtlarining bayoni;
- ✓ Namoz niyatining masoyili;
- ✓ Qiro'at masoyili;
- ✓ Musofirona namozning bayoni;
- ✓ Namoz Juma'ning bayoni
- ✓ Tavorix namozining bayoni,... kabi bir qancha qismlardan ibo

ratdur.

Uchinchi bob ham shu yo'sinda davom etib, "Kitobu-z-zakat" deb nom

berilgan. U 189 baytdan iborat bo'lib , quyidagicha bo'limlarga nom berilgan:

- ✓ Basmala;
- ✓ Zakot sharoitining bayoni;
- ✓ Naqdina bayoni;
- ✓ Zakot masorifning bayoni;
- ✓ Ushr-u xirojning bayoni;
- ✓ Zakot bermasa durust ermas kishilarning bayoni

Asarning to'rtinchi bobi "Kitobu-s-savm" deb nom berilgan bo'lib, 166

baytdan iboratdir. Uning bo'limlari esa quyidagicha nomlanadi:

- ✓ Basmala;
- ✓ Farz-u nafl ro'zalarining bayoni va niyyatlarning kayfiyati;
- ✓ Qazo bila kafforat bayoni;
- ✓ A'zori mutanajjisa bayoni;
- ✓ Manhi-yu makruh va mustahab savmlarning bayoni;

✓ E'tikof bayoni

Nihoyat beshinchi bob “Kitobu-l-

haj” deya uning boblariga bunday ta’rif

berilgan:

- ✓ Basmala;
- ✓ Haj vujubi sharoyitining bayoni;
- ✓ Haj adosining sharoyitining bayoni;
- ✓ Haj arkoning bayoni;
- ✓ Haj sunnatlarining bayoni;
- ✓ Hajj-I g’ayr bayoni;
- ✓ Hady bayoni <sup>2</sup>

Mazkur qo‘lyozma eski o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, har satr ostida matnning forscha tarjimasini berilganligi bilan ahamiyatli.

Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari ro‘yxatida bir sarlavhada ta’kid etganimiz nomning yo‘qligi sezgir o‘quvchilarni taajjubga solishi tayin. Darhaqiqat, “Kitob ul-haj” mustaqil asar sifatida hech yerda eslanmaydi. U “Mubayyin” tarkibida yashab keladi. Zahiriddin Bobur boshqa noyob fazilatlari qatorida komil musulmon ham edi. Bu zoti bokaram shaxsi atrofida qizg‘in janglar davom etgan qizil mafkura hukmronligi zamonida uning dinga munosabati va ilohiyotga doir asarlari xususida gapirish imkoniyatlari cheklangan edi. Yuqorida ta’kidlaganimdek, “Mubayyin” besh qism yoxud kitobdan tuzilgan bo‘lib, “Kitob ul- haj” uning oxirgisidir. Asarning har bir kitobi musulmonchilikning bir rukni sharhiga bag‘ishlangan.

Biz bilamizki, musulmon unvoniga sazovor bo‘lmoq uchun uning kalimayi shahodat (Allohdan o‘zga iloh, ibodat qilishga loyiq zot yo‘qligiga va Muhammad (s.a.v) Alloh taoloning bandasi (to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish uchun yuborilgan) elchisi ekaniga guvohlik beraman), namoz, ro‘za, zakot va haj kabi ruknlarini bajarmoq

---

<sup>2</sup> <http://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-talim-vazirligi-toshkent-v5.html?page=3>

shart. Shulardan to'rttasi farz (zaruriy), beshinchisi- haj esa jismoniy va iqtisodiy omillarga uzviy bog'liqdir. Islom dinida adolat kuchli. Uning barcha farzu sunnatlari inson va uning sharafini himoya qilish, jismoniy hamda ma'naviy kamolotni ta'minlashga qaratilgan, johillargina ana shu me'yorni buzishlari , majburiylikka urg'u berishlari mumkin. Zikri o'tgan jihatlar taqozosiga ko'ra salomatligi yo'l azoblariga dosh beradigan, mablag'i yetarli muslimu muslimalarga Ka'ba tavofini ado etadilar. Qur'oni Karimda "Baqara" surasining o'nta va "Haj" surasining o'n ikkita oyati karimasida yetarli ifodasini topgan.

Ulug' ma'naviy arbob Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining diniy falsafiy qarashlari bilan ham yetuklik timsoli bo'lib, u o'zidan muslimu muslimalar uchun katta xazina qoldirdi. Dilida qavat-qavat armonlari bilan foniy alamdanda ketgan, ulkan ma'naviy arbobning gardi endi mahzun va mushtoq diydalarga to'tiyodir. Bugun ona yurtida uning shaxsi va asarlariga munosabatning tubdan o'zgarganligi ulug' bir shukronalikdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;
2. Olimov M. O'zbek boburshunosligi tarixidan. O'zbek tili va adabiyoti, 1989.
3. Stebleva I.V. Semantika gazeley Babura. — M.: 1983.
4. U.Erskin. Hindistonda Bobur davlati (Ingliz tilidan G'.Sotimov tar.). — T.: 1997:
5. V.Zohidov. Boburning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. -T.:1960;
6. Vohidov R. Biz bilgan va bilmagan Bobur. Toshkent. 2008 yil.
7. Yangi O'zbekiston gazetasi 2022 yil 19 mart

8. <https://sammuslim.uz/oz/press/news/mubayyan-va-nasriy-bayoni-bobur-mirzo-buyuk-faqih-birinchi-mavzu?print=on>
9. <https://moturidiy.uz/oz/news/1080>
10. <http://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-talim-vazirligi-toshkent-v5.html?page=>